

ISSUES OF SYSTEMIC DEVELOPMENT OF REGIONAL JOURNALISM

Hurmet Abdimuratovich ATA JANOV

Candidate of filology, Associate Professor

Department of Journalism

Karakalpak State University

Nukus, Uzbekistan

MINTAQAVIY JURNALISTIKANING TIZIMLI RIVOJLANISH MASALALARI

Xurmet Abdimuratovich ATA JANOV

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jurnalistika kafedrası

Qoraqalpoq davlat universiteti

Nukus, O'zbekiston

ВОПРОСЫ СИСТЕМНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ

Хурмет Абдимуратович АТАЖАНОВ

Кандидат филологических наук, доцент

Кафедра журналистики

Каракалпакский государственный университет

Нукус, Узбекистан ORCID: 0009-0009-2617-386X

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Atajanov X.A. Mintaqaviy jurnalistikaning tizimli rivojlanish masalalari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 2. — B. 196-210.

<https://doi.org/10.36078/1746685427>

Received: March 14, 2025

Accepted: April 17, 2025

Published: April 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. In the modern era of accelerated information flows and the development of information and communication technologies, it is becoming increasingly difficult to convey information to the audience, create content that attracts public attention, and accurately reflect events. In particular, as a result of the undermining of the monopoly of traditional media in conveying information to the audience, the idea that only journalists own information and can convey it to the audience is being destroyed in society. As the media loses its leading position in the monopoly over information, it becomes increasingly clear that the concept that every person in society is an author is becoming more and more true. In such an era, the media are using new methods to convey information to the audience. It is becoming increasingly important for the media to take clear steps to meet the demands and desires of their target audience. This is why the weight and credibility of information appearing in regional and local news channels and media is increasing. Considering the activities of the media, especially in the regional context, allows us to understand how widely the relationship between the media and the audience is developing. That is, studying the media from a regional point of view shows that today's audience needs to be studied in several ways. The author comprehensively analyzed the activities and features of regional media and the fact that the types of media operating in Karakalpakstan have their own directions in creating content. In addition, the article analyzes the basic principles and directions of the development of regional journalism within the framework of world journalism. The author also demonstrated the requirements and principles imposed on regional media, having studied Karakalpak journalism from a

regional point of view. The final part of the article describes the development of Karakalpak media today in several stages. He also tried to show the modern direction of the development of Karakalpak media through several parameters.

Keywords: regional journalism; industry press; typological trends; global information space.

Annotatsiya. Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan axborot oqimlari tezlashgan davrda axborotni auditoriyaga yetkazib berish, ko'pchilikning e'tiboriga ilinadigan va voqealarni to'g'ri bayon qiladigan kontentlarni yaratish tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, dasturiy ommaviy axborot vositalarining axborotni auditoriyaga yetkazib berishdagi monopoliyasining yemirilishi natijasida jamiyatda faqatgina jurnalistlarga axborot egasi va uni auditoriyaga yetkazib beruvchilar degan tushunchaning o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgani kuzatilmoqda. Medialarning axborotga egalik qilish darajasi susaygani sari, jamiyatda har bir inson muallif degan konsepsiyaning haqiqatga yaqinlashayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ana shunday bir davrda medialar axborotni auditoriyaga yetkazib berishning yangi uslublaridan foydalanishga intilmoqda. Medialar o'z navbatida maqsadli auditoriyaning talablari va istaklariga muvofiq harakat qilish zaruratiga duch kelmoqda, bu esa zamon talabi sifatida qaralmoqda. Shu sababli mintaqaviy va mahalliy axborot manbalari hamda medialarda taqdim etilayotgan axborotlarning salmog'i va ishonchliligi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy nuqtayi nazardan OAV faoliyatiga nazar tashlash orqali OAV-auditoriya munosabatlarining qanchalik keng ko'lamda rivojlanayotganini anglash imkoniyati yuzaga chiqadi. Ya'ni OAVni mintaqaviy rakursda tadqiq etish bugungi kun auditoriyasi talablarining turli jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif tomonidan mintaqaviy OAVning faoliyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari masalalari Qoraqalpog'istonda faoliyat olib borayotgan media turlarining kontent yaratishdagi yo'nalishlari orqali har tomonlama tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada mintaqaviy jurnalistikaning asosiy tamoyillari va rivojlanish yo'nalishlari jahon jurnalistikasi doirasida tahlil qilingan. Shuningdek, muallif qoraqalpoq jurnalistikasini mintaqaviy aspektda o'rganish orqali mintaqaviy OAVga qo'yiladigan talablar va prinsiplarni aniqlab bergan. Maqolaning xulosa qismida qoraqalpoq OAVning bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari izchil ravishda bayon etilgan hamda ularning hozirgi rivojlanish yo'nalishlari bir nechta parametrlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy jurnalistika; soha matbuoti; tipologik yo'nalishlar; global axborot makoni.

Аннотация. В современную эпоху ускоренных информационных потоков и с развитием информационно-коммуникационных технологий становится все сложнее доносить информацию до аудитории, создавать контент, привлекающий внимание общественности, и точно отображать события. В частности, в результате подрыва монополии традиционных СМИ на донесение информации до аудитории в обществе разрушается представление о том, что только журналисты являются владельцами информации и могут донести ее до аудитории. По мере того как средства массовой информации теряют лидирующую позицию в монополии над информацией, становится все более очевидным, что концепция, согласно которой каждый человек в обществе является автором,

становится все более и более верной. В такую эпоху средства массовой информации пытаются использовать новые методы донесения информации до аудитории. Для средств массовой информации становится все более важным предпринимать четкие шаги навстречу требованиям и желаниям своей целевой аудитории. Именно поэтому возрастает вес и достоверность информации, появляющейся в региональных и местных новостных каналах и СМИ. Рассмотрение деятельности СМИ, особенно в региональном разрезе, позволяет нам понять, насколько широко развиваются отношения между СМИ и аудиторией. То есть изучение СМИ с региональной точки зрения показывает, что сегодняшнюю аудиторию необходимо изучать несколькими способами. Автором всесторонне проанализирована деятельность и особенности региональных СМИ, а также то, что виды СМИ, функционирующие в Каракалпакстане, имеют свои направления в создании контента. Кроме того, в статье анализируются основные принципы и направления развития региональной журналистики в рамках мировой журналистики. Автор также продемонстрировал требования и принципы, предъявляемые к региональным СМИ, изучив каракалпакскую журналистику с региональной точки зрения. В заключительной части статьи описываются этапы и параметры современного развития каракалпакских СМИ.

Ключевые слова: региональная журналистика; отраслевая пресса; типологические направления; глобальное информационное пространство.

Kirish

Global axborot makoni chegara bilmas darajada kengayib borgani sari geografik va joylashuv jihatidan o'ziga xos media makonga ega bo'lgan lokal media va jurnalistikani har tomonlama o'rganish dolzarblik kasb etmoqda. Bunda asosiy masala — auditoriyaning mintaqaviy muammolarga bo'lgan munosabati va qiziqishi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, mintaqaviy mediada yoritib kelinayotgan kontentlarning mazmun-mohiyati va ta'sirchanligi masalalari o'rganilishi lozim bo'lgan muammolarga aylanmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi — mintaqaviy jurnalistikaning tizimli rivojlanish klassifikatsiyasini yaratish va uning asosiy bosqichlarini aniqlab, ularni ilmiy asosda ko'rsatib berishdan iborat.

Asosiy qism

Mintaqaviy jurnalistika tizimining rivojlanishi va undagi o'zgarishlarga bevosita shu mintaqada kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, mintaqaviy jurnalistika va ommaviy axborot vositalari tizimining shakllanishi va rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy holati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu borada A. I. Verteshin quyidagi fikrni bildiradi: “Siyosiy-iqtisodiy faktor, birinchi navbatda, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi — mintaqaviy jurnalistikaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu — xalqning to'lov qobiliyati va ularning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirishga mablag' yo'naltirish istagiga bog'liqdir” (ya'ni gazetalarni sotib olishi va internetga ulanish imkoniyatining mavjudligi) [Verteshin 2006: 198].

Mintaqaning iqtisodiy barqarorligi, xususan, ayrim sohalarning izchil rivojlanib borishi OAV tizimining shakllanishi va faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunga misol sifatida, mustaqillikdan keyingi yillarda Qoraqalpog'iston matbuot tizimida shakllanayotgan "soha matbuoti" tushunchasining paydo bo'lishini keltirish mumkin. Ushbu tipologik yo'nalishdagi nashrlar muayyan siyosiy maqsadga ega tizim sifatida tashkil topdi. Bunday turdagi gazetalarning yuzaga kelishiga iqtisodiy jihatdan mustaqil harakatlana oladigan, o'z faoliyat yo'nalishiga ega va shu sohada ishlayotgan mutaxassislar uchun axboriy yordam vazifasini bajara oladigan matbuotga bo'lgan ehtiyoj sabab bo'ldi.

Darhaqiqat, mintaqaning iqtisodiy salohiyati mintaqaviy OAV tizimlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bu fikrni bir qator tadqiqotchilar ham tasdiqlaydi. Masalan, Y. S. Pulya o'zining "Динамика и характер развития местных газет в структуре региональных и федеральных СМИ России (политический анализ)" nomli dissertatsiyasida quyidagicha ta'kidlaydi: "Mahalliy matbuotning iqtisodiy barqarorligi bilan mintaqa iqtisodiyotining izchil rivojlanishi o'rtasida bevosita va aniq bog'liqlik mavjud. Masalan, "Komsomolskaya pravda" — poytaxtda eng ko'p o'qiladigan gazeta — obunachilar soni bo'yicha mintaqaviy "Gatchinskaya pravda" gazetasidan biroz past turadi" [Pulya 2004: 12].

Shuningdek, Verteshin qayd etadi: "Mintaqaviy siyosiy makon mahalliy OAV va jurnalistika evolyutsion tizimini yo'naltirib boradi. Siyosiy makon doirasida hukumat-xalq, hukumat-jurnalistika, hukumat-mahalliy elita, mahalliy hukumat-markaz munosabatlari modeli shakllanadi va bu holatlar mintaqaviy axborot jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi" [Verteshin 2006: 201].

V. Glazichev va P. Shedrovskiy esa o'z maqolalarida ayrim madaniy normalar hamda qadriyatlarining ijtimoiy va siyosiy muammolarni anglashda qanday shakllanishini tahlil qiladi. Ularning fikricha, "Mintaqaviy kommunikatsiya tizimi ushbu qadriyatlarni yuzaga keltiradi va lokal medialar orqali ularni yoritadi, shuningdek, bu qadriyatlarga yangi tizimlarni qo'shadi" [Glazichev 2002: 67].

Mintaqaviy jurnalistika ma'lum bir mintaqaning madaniy qadriyatlari bilan ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy qarashlarini ommaviy kommunikatsiya asosida shakllantiradi.

Bundan tashqari, mintaqaviy OAV tizimi quyidagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy faktorlar asosida rivojlanib boradi:

- Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi eng asosiy omil hisoblanadi. Bunda auditoriyaning iqtisodiy imkoniyatlari bilan shaxsiy madaniy talablari tushuniladi. Qoraqalpog'iston sharoitida esa ko'pgina OAVning iqtisodiy teng salmoqligini ta'minlashda mahalliy moliyaviy tashkilotlar bilan birga, mintaqadagi siyosiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan OAV ta'sis etuvchilari ishtirok etadi.

- Mintaqaviy jurnalistikaga yo'naltirilgan ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining mavjudligi. Ushbu muassasalar mahalliy OAVni mutaxassislar bilan ta'minlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Qoraqalpog'istonda jurnalist kadrlarni tayyorlash 1989-yilda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida boshlangan.

- Mintaqada PR va reklama tijoratining shakllanishi katta ahamiyatga ega. Ushbu tashkilotlar OAV va jurnalistikaning iqtisodiy tomondan erkin bo'lishini ta'minlab beradi.

- Mintaqaviy jurnalistlar siyosiy madaniyatining shakllanishi. Bu ham OAV rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ya'ni jurnalistlarning siyosiy madaniyati yuqorilashi mintaqadagi siyosiy jarayonlarning yanada to'liq va sifatli yoritilishini ta'minlaydi. Ayniqsa, jurnalistlarning siyosiy madaniyat darajasining yuqoriligi mintaqada bo'lib o'tadigan siyosiy tadbirlar va islohotlarning amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi.

- Mintaqaning ekologik holati ham mintaqaviy OAVning axborot siyosatiga ta'sir etadi. Qoraqalpog'istonda Orol fojiasi oqibatida yuzaga kelgan ekologik muammolar va ularga oid masalalarning mediada yoritilishi dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Ushbu mavzuning Qoraqalpog'iston media makonida yoritilishiga e'tibor qaratilsa, bu mavzuning yoritilishi to'liq shaklda olib borilganini ko'rish mumkin. Masalan, Orol fojiasi endi sezila boshlagan davrlarda mintaqaviy medialarda dengiz suvining tortilishi bilan bog'liq masalalarga oid jurnalist chiqishlari soni ortgan. 2000-yillarga kelib esa Orol fojiasi oqibatlarining aholi turmush tarziga ta'siri, xususan, suvsizlik va migratsiya masalalari asosiy axborot mavzulariga aylangan. So'nggi yillarda esa Orol fojiasi bilan bir qatorda global iqlim o'zgarishining mintaqaga ta'siri muhim mavzu sifatida ko'zga tashlana boshladi.

Qator olimlar mahalliy axborotning o'quvchilar tomonidan iliq qabul qilinishini ta'kidlab o'tganlar. Masalan, E. P. Proxorov shunday deydi: "Mintaqaviy matbuotga o'quvchilar chin ko'ngildan o'z qarashlarini bildirishadi, mahalliy matbuotning kuchi — bu o'quvchilarga yaqinligida" [Proxorov 1968: 83]. B. V. Strelsov esa quyidagicha fikr bildiradi: "Mahalliy yangiliklarga yo'nalish olish — bu o'quvchilarga taqdim etilayotgan axborotni saylash imkoniyatini kengaytiradigan katalizator vazifasini bajarib beradi. Odamlarning o'z atrofida bo'layotgan hodisalarni yoritib beradigan yangiliklarga qiziqishi yuqori bo'lishi qonuniy holat hisoblanadi" [Strelsov 1977: 46].

Haqiqatan ham, auditoriyaning qiziqishi mintaq medialarining axborot makoni shakllanishidagi asosiy jihatlardan biri sanaladi. Bu borada A. G. Zdravomislov shunday fikr bildiradi: "Insonlarning faolligini ko'rsatib beradigan belgilaridan biri — bu ularning talablari hisoblanadi. Ijtimoiy talablarning asosiylaridan biri esa mehnat, bilish va suhbatdir" [Zdravomislov 1986: 98].

Shu sababli mintaqada bo'layotgan voqealar haqidagi axborot insonning jamiyatda to'g'ri harakat qilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni mahalliy axborot insonning ijtimoiy talablaridan biri hisoblanadi. Odamlarning mintaqaga oid axborotlarga bo'lgan talablari ongli harakat bo'lib, mintaqaviy OAVga nisbatan o'quvchilar qiziqishini shakllantiradi. Axborotga bo'lgan ijtimoiy talab — mahalliy mediaga bo'lgan qiziqishning shakllanish manbai bo'lsa, o'quvchilarning qiziqishi esa mavzuli talablarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarning talab va istaklarini inobatga olish demokratik jamiyat OAV tizimida alohida o'rin egallaydi. Ya'ni o'quvchi OAVdan o'zi xohlagan, o'zi yoqtiradigan ma'lumotlarni qidiradi. Boshqa tomondan

esa media ushbu talablarni qondirish maqsadida universal formatlarni tanlashga intiladi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqaviy media bozorida OAVning tipologik jihatdan turli shakllarda differensiyalanishiga olib keladi.

Bunday sharoitda OAVning tipologik tahlili masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Rossiyalik olim V. V. Tulupovning fikricha: "Nashr tipi bu — umumiy obraz (grek tilidan tarjima qilinganda "belgi" degan ma'noni anglatadi), u real ish olib borayotgan ma'lum bir OAVda takrorlanadi. Ya'ni tipologiya bu — gazeta, jurnal, teleradioeshittirishlarning belgilari va xususiyatlari asosida ularni ilmiy jihatdan bilish va tizimlashtirishdir" [Tulupov 2020: 52].

Bundan tashqari, OAV tipologiyasi masalasi V. A. Antropov [Antropov 2013: 114], S. G. Korkonosenko [Korkonosenko 2016: 272], A. R. Safina [Safina 2013: 13], V. V. Smeyuxa [Smeyuxa, 2013: 67] kabi olimlar tomonidan ham keng tahlil qilingan.

Tarmoq nashrlari tipologiyasi bo'yicha Rossiyada birinchilardan bo'lib olim A. I. Akopov o'z fikrlarini ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, tarmoq makonini OAV sifatida qarash mumkin, ya'ni ularni ma'lum bir tuzilish, mavzu, maqsad va boshqa belgilari asosida tasniflash lozim. Bular qatoriga jurnalistlar tomonidan tayyorlangan gazetalar, jurnallar, axborot agentliklari, bosma nashrlarning elektron ko'rinishlari va sof elektron nashrlar kiradi [Akopov 1998: 43].

M. M. Lukina esa internet OAVni uch guruhga ajratadi: dasturiy OAVning nusxalari, o'ziga xos axborot siyosatiga ega modifikatsiyalangan onlayn-nashrlar hamda offlayn prototipiga ega bo'lmagan to'liq onlayn media loyihalar [Lukina].

Olimlarning bu fikrlaridan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston OAV tizimini tahlil qilish orqali o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash mumkin. Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston jurnalistikasi va OAVlarining rivojlanish jarayonlari bosqichma-bosqich tasniflanishga harakat qilindi.

Urushdan keyingi yillar. Urushdan keyingi davr matbuoti hayotning barcha sohalarida ideologiyaning kuchli ta'sirini aks ettirgan. Davlat miqyosida xalqlar do'stligi va millatlararo tenglik masalalari yoritilgan bo'lsa-da, amalda milliy urf-odatlar, adabiyot va madaniyat keskin tazyiqqa uchragan. Rus xalqining madaniyati va adabiyoti yuksaltirilgan, mahalliy klassik namoyandalarning ijodi esa taqiq ostiga olingan.

Bu holatni quyidagi misolda ko'rish mumkin: 1951-yilda "Sovetskaya Karakalpakiya" gazetasida chop etilgan "Рассвет музыкальной культуры каракалпакского народа" nomli maqolada shunday jumlar uchraydi: "Как и много лет назад, каракалпакская музыка всё ещё носит примитивную унисонную форму, а наши певцы всё ещё придерживаются старинной, пережившей себя горловой манеры исполнения. Подобный уровень развития музыки приводит к тому, что сплошь и рядом песни советских каракалпакских поэтов исполняются в театре и по радио на старинные мотивы, возникшие чуть ли не в эпоху феодализма" (*Советская Каракалпакия*, 1951).

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalq musiqasi "feodalizm qoldig'i" sifatida talqin qilinib, rus klassik musiqasi dasturlarining joriy etilishi

ko'zga tashlanadi. Shunday yondashuv adabiyot namoyandalariga ham tatbiq etilgan.

1970–1980-yillar. Bu yillarda OAVda tanqidiy materiallar ko'zga tashlana boshladi. Kamchiliklar avvalgidek ideologik shaklda emas, balki hayot talablariga mos ravishda yoritildi. Tahririyatlarda mavzuli bo'limlar shakllantirildi, jurnalistika sohasida malakali mutaxassislar soni ortdi. “Sovet Qaraqalpaqstani” gazetasida partiya hayoti, sanoat, qishloq xo'jaligi, maktublar va boshqa yo'nalishlar bo'yicha bo'limlar faoliyat yuritdi.

Televideniya texnik cheklovlarga qaramay, Qoraqalpog'istonning chekka hududlaridan ham materiallar tayyorlana boshlandi. Teleozerk va telenovella janrlari shakllandi. Radioning faoliyati kengaydi, bolalar va yoshlar hayotiga oid ko'rsatuvlar namoyish qilindi, adiblar ijodidan namunalar e'fir orqali uzatildi.

Televideniye nafaqat respublika, balki xalqaro yangiliklarni ham yoritdi. Ammo jurnalistlar global voqealarni o'z fikr va tahlillari asosida emas, balki markaziy gazetalar materiallariga tayangan holda yoritdi. Masalan, “Dunya o'tken hapte ishinde” nomli ko'rsatuv “Sovetskaya Rossiya” kabi markaziy manbalar asosida tayyorlangan.

1980–2000-yillar. 1990-yillarga kelib, senzura bekor qilindi, partiya tazyiqi esa tarixga aylandi. Bu davrda partiya syezdlari, davlat rahbarlari bayonotlari, syezd materiallari gazeta sahifalarida berilmaydigan bo'ldi. Paxta ekish, sholi yig'imi, turli sohalardagi muvaffaqiyatlar, yangilanayotgan davlat tushunchasi yangicha shaklda — auditoriyaga shaffoflik va demokratiya ko'rinishida taqdim etila boshlandi.

Shunga qaramay, milliylik va milliy o'zlikni anglash jarayonlariga keng imkoniyat yaratilgani tufayli respublika miqyosidagi hukumat gazetasi va jurnallari, televideniye hamda radio ushbu masalalarni yoritishda erkin faoliyat yurita oldi. Masalan, televideniya yozuvchi M. Nizanov olib borgan “Maurit” ko'rsatuvida ilgari ochiq aytilmagan mavzular yoritila boshlandi. Bu ko'rsatuvlar orqali nafaqat milliy o'zlikni anglash, balki boy madaniyatimiz hamda ilgari ommaning e'tiboridan chetda qolgan voqealar ochiqлана boshladi.

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mustaqil OAVlarni shakllantirish va ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritishga o'tkazish masalalari kun tartibiga chiqdi. Bu davrda ko'plab mahalliy gazetalar iqtisodiy inqiroz holatini boshdan kechirdi. Ayniqsa, jurnalistlar, xususan muharrirlarning mustaqil ravishda boshqaruv olib borish tajribasining yetishmasligi tahririyat faoliyatida muammolarni yuzaga keltirdi. Natijada, mustaqillikning ilk yillarida tashkil etilgan “Aral”, “Aral qizlari”, “Profsoyuz turmisi”, “Talapker” kabi jurnallar bir necha yil faoliyat yuritganidan so'ng yopilib ketdi. Bunga asosiy sabab sifatida iqtisodiy boshqaruv ko'nikmasiga ega xodimlarning tahririyatlarda yetishmasligi ko'rsatiladi.

2000-yillar. Ushbu yillarda Qoraqalpog'iston media makonida bosma nashrlarning differensiyalanishi jarayoni boshlandi. Bu holat auditoriya qiziqishi va talablariga asoslangan holda shakllandi. Ya'ni matbuot bozorida sohaviy yo'nalishdagi nashrlar paydo bo'la boshladi.

2000–2016-yillar. Yangi texnologiyalar davri. Media sohasida yangi texnologiyalarning kirib kelishi kontent yaratish va uni auditoriyaga

yetkazish jarayonlarini tubdan o'zgartirdi. Bu o'zgarish eng avvalo bosma nashrlarda sezildi. Gazeta-jurnal sahifalarini tayyorlashda kompyuter texnikasidan foydalanish avvalgi murakkab texnologik jarayonlarni soddalashtirdi hamda nashr tayyorlash vaqtini sezilarli darajada qisqartirdi. Shu bilan birga, tahririyat faoliyatida yangi rollar — dizayner, matn teruvchi kabi lavozimlar shakllandi. Moddiy-texnik ta'minot ham zamon talablariga mos ravishda yangilandi. Gazeta bosimi uchun zamonaviy vositalar zaruratga aylandi.

Audio mahsulotlar sonli formatga o'tishi esa FM formatidagi radiostansiyalar faoliyatining yo'lga qo'yilishiga turtki bo'ldi. Qoraqalpog'istonda FM formatida faoliyat yurituvchi "NokisFM" radiostansiyasi tashkil etildi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy audiovizual jurnalistikada interaktiv eshittirishlar paydo bo'lishiga, auditoriya bilan SMS va mobil aloqa orqali bevosita muloqot qilish imkoniyatining yaratilishiga olib keldi.

2000-yillardan boshlab Qoraqalpog'istonda xususiy telekanallarga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bordi. Bunga asosiy sabab — "Qaraqalpaqstan" telekanalida efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarning zamonaviy auditoriya talablariga mos kelmasligi, shuningdek, reklama bozorida talab va taklifning ortganligi bilan izohlanadi. Ko'plab uyali aloqa operatorlari "Jaslar TV" telekanali bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Bu hamkorlik bir tomondan interaktiv ko'rsatuvlar orqali auditoriyani jalb qilish va brendni targ'ib qilish vositasi bo'lsa, boshqa tomondan, to'g'ridan to'g'ri efir orqali SMS xizmatlar vositasida reklama va xizmatlar taqdimoti yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, auditoriya tomonidan ko'ngilochar formatdagi, zamonaviy bloklarga asoslangan telekanallarga bo'lgan talab ham ortdi.

Mobil aloqaning rivojlanishi ortidan auditoriyaning internetdan foydalanish darajasi oshdi. Bu holat esa mahalliy nashrlarning onlayn platformalarga o'tib, auditoriya bilan zamonaviy aloqa shakllarini yo'lga qo'yishiga xizmat qildi.

Yangi davr — hozirgi kun. Yaqin yillarda Oksfordda amerikalik, britaniyalik va avstraliyalik olimlar hamda amaliyotchilar tomonidan "Konez jurnalizma. Versiya 2.0. Industriya, texnologiya i politika" nomli kitob chop etildi. Kitob sarlavhasining o'zi yangi texnologiyalar asrida jurnalistikaning holatini ifodalaydi. Mualliflar yangi texnologiyalar va fuqarolik jurnalistikasi davrida professional jurnalistikaning bugungi holati va istiqbollari haqida fikr yuritadilar.

Kitobning dastlabki sahifalarida olimlar I. A. Samuylova shunday deydi: "Bu kitob mutaxassislikning o'zgarib borayotgan yangi dunyodagi kelajagini to'g'ri anglashga majbur etadi" [Samuylova 2016: 12]. Bu fikrlar bekordan-bekorga paydo bo'lmagan. So'nggi 5–6 yil ichida davriy ommaviy axborot vositalari asta-sekinlik bilan o'z o'rnini internet OAVlariga bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy nashri hisoblangan "Erkin Qaraqalpaqstan" gazetasining auditoriyasi ming nafar o'quvchiga ham yetmaydi.

Yangi davrdagi o'zgarishlar bilan texnik yuksalishlar mintaqaviy OAVlarda qanday aks etgan degan savol mintaqaviy jurnalistikani o'rganib kelayotgan olimlar uchun dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Qoraqalpog'istonda yangi bosqichdagi o'zgarishlar davlat

miqyosida olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, yangi kommunikatsion texnologiyalarning auditoriya tomonidan keng qo'llanila boshlashi bilan OAV sohasida muhim yangilanishlarga olib keldi.

Birinchidan, auditoriyaning mintaqaviy axborotlarga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ya'ni aholi o'z atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalar bilan bog'liq yangiliklarga nisbatan faolroq qiziqish bildiradigan bo'ldi.

Ikkinchidan, yangi kommunikatsion texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida ijtimoiy tarmoqlarda mintaqaviy voqealarning aholiga tez yetkazilishi kuchaydi. Bu esa har bir foydalanuvchining muallifga aylanishiga olib keldi. Natijada OAVlarning axborot tarqatishdagi monopoliyasi deyarli yo'qoldi.

Uchinchidan, yangiliklar oqimining ortishi bilan "axborot chiqindisi" deb ataluvchi — ya'ni ahamiyat kasb etmaydigan, mintaqaviy aholi hayoti va ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lmagan kontentlarning ko'pligi natijasida auditoriya charchash holati kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy davrda mintaqaviy OAVlarning imkoniyatlari va ustun tomonlari ham aniq ko'zga tashlanmoqda. Eng muhim ustunliklardan biri bu — mintaqaviy OAVlarga lokal auditoriya tomonidan yuqori darajadagi ishonch bildirilishidir. Aholi ko'pincha aynan o'zi yashab turgan hududdagi shahar, tuman, viloyat voqeligini yoritadigan OAVlarni yaqin deb hisoblaydi. Buning sababi shundaki, mintaqaviy media mahalliy auditoriyani tashvishga solayotgan muammolarni yoritadi, shuning uchun u tushunarli va dolzarb hisoblanadi. Masalan, Qoraqalpog'istondagi eng ommabop Telegram kanallaridan biri — @KARAKALPAK24'ning 2025-yil mart oyidagi eng ko'p ko'rilgan postlarini tgstat.com saytida tahlil qilish natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: "Metan zapravkalaridagi cheklovlar ertadan boshlab bosqichma-bosqich olib tashlanadi" sarlavhali post 87 mingdan ortiq ko'rilgan. Postda metan quyish shoxobchalarining 24 soatlik ish rejimiga o'tganligi haqida ma'lumot berilgan. Ushbu yangilik mahalliy aholining kundalik hayot tarziga bevosita ta'sir qilganligi sababli keng auditoriyani qamrab oldi. Shuningdek, "Tabiiy gaz uchun isitish mavsumida belgilangan 500 kub metrlik bazaviy norma 1-aprelgacha cho'zildi" degan post ham keng e'tibor qozongan [<https://uz.tgstat.com/ru>].

Mintaqaviy OAVlarning yana bir ustun jihati — auditoriyani aniq targetlash imkoniyatining mavjudligidir. Har bir nashr o'zining geografik qamrovi va tarqalish zonasi bo'yicha faoliyat yuritadi. Bu esa muayyan hududda istiqomat qiluvchi aholi uchun eng zarur bo'lgan axborotni aniq va samarali yetkazib berish imkonini yaratadi. Shuningdek, mintaqaviy OAVlar auditoriyani ijtimoiy-demografik yoki psixografik segmentlarga bo'lish asosida ham maqsadli kontent taqdim etishga xizmat qiladi. Masalan, Chimboy tumanining "Shimbay hao'azi" gazetasining 2025-yil 30-yanvar sonida chop etilgan "Chimboyli uychilar haqida nimalarni bilasiz?" nomli maqolasida tumandagi qora uy ishlash bo'yicha o'z dastur va an'analarga ega bo'lgan hunarmandlar sulolasi haqida hikoya qilinadi. Chimboy tumani qora uy ishlash san'ati bo'yicha nafaqat Qoraqalpog'iston, balki butun Markaziy Osiyoda mashhur hisoblanadi. Muallif Aynura Oteniyazova mazkur sulolalarning tarixiy ildizlari, hozirgi kunda bu hunarni davom ettirib kelayotgan ustalar haqida ma'lumot

bergan. Bu kontent yosh auditoriya uchun ham qiziqarli bo'lishi mumkin. Sababi uychilik — bugungi kunda yo'qolib borayotgan milliy hunar turlaridan biri bo'lib, ko'pchilik bu haqida faqat eshitgan, ammo uning amaliy ko'rinishlarini ko'rmagan. Shu sababli ushbu maqola yoshlarni milliy hunarga qaytarish, tarixiy xotira va merosga qiziqtirishga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, mamlakat bo'ylab axborot makonining to'lib-toshgan holati sharoitida mintaqaviy OAVlar auditoriya e'tiborini jalb qilishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq axborot oqimining haddan ziyod ortib ketishi ba'zan ularning inkor qilinishiga, ya'ni e'tibordan chetda qolishiga ham olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Bunday holatda mintaqaviy ommaviy axborot vositalari auditoriyaga muhim axborotni yetkazishda muqobil kanal sifatida xizmat qilishi mumkin. Lokal medialarda raqobat darajasi past bo'lganligi sababli, kontentning o'qilishi va e'tibor qozonishiga umid katta.

Bundan tashqari, mintaqaviy OAVlarda ko'pincha yangiliklar boshqa manbalardan ko'chirilib bosiladi. Bu holat ham auditoriyaning e'tiborini jalb etish imkonini yaratadi. Mintaqaviy OAVlarning yana bir muhim afzalligi — ularning axborot xilma-xilligidir. Dasturiy OAVlardan tashqari, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, mahalliy hamjamiyatlar, Telegram kanallari, internet bloglar orqali faoliyat yuritayotgan mintaqaviy kanallar soni ortib bormoqda. Bu holat esa maqsadli auditoriyani turli aloqa kanallari orqali samarali qamrab olish imkonini beradi.

Turli kommunikatsion kanallar orqali bir mavzu bo'yicha bir necha marotaba auditoriya bilan aloqa o'rnatish orqali axborotning ta'sirchanligini oshirish mumkin. Mahalliy gazeta o'quvchisi yangilikni bosma nashrda, ijtimoiy tarmoqda yoki radio orqali eshinishi mumkin. Masalan, @kar24 Telegram kanalida yoritilgan "Nukusda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatning oldi olindi" sarlavhali postda quyidagi ma'lumot keltirilgan: "14-mart kuni soat 03:05 da Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri M. Nurmuhammedov ko'chasida 'MAN' rusumli propan gaz tashuvchi yuk avtomobili haydovchisi boshqaruvni yo'qotishi natijasida yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida FVBga xabar kelib tushgan" [@kar24.uz].

Shuningdek, mintaqada faoliyat yuritayotgan karakalpak24, Ne Janaliq, kruz.uz, kknews kabi Telegram kanallari voqealarni dasturiy OAVlarga nisbatan tezkor, qisqa va vizual ko'rinishda yoritib boradi. So'nggi yillarda esa ayrim axborot saytlarining nafaqat Telegramda, balki keng auditoriyaga ega Instagram ijtimoiy tarmog'ida ham faoliyat yurita boshlagani kuzatilmoqda. Masalan, "Kruz" yangiliklar sayti bugungi kunda Instagram tarmog'ida 74 mingdan ortiq obunachiga ega. Ular foto va video kontentlar orqali mahalliy yangiliklarni auditoriyaga yetkazib bermoqda. "Achchiqko'l atrofiga chiqindilar to'planmoqda" sarlavhali postda quyidagicha so'zlar keltirilgan: "Achchiqko'l-da 100 dan ortiq qush turlari va boshqa hayvonlar uchraydi. Bu ko'l-da xalqaro Qizil ro'yxatga va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan qushlar va hayvonlar in quradi. Chiqindilar nafaqat hayvonlarga, balki kasalliklarning tarqalishiga ham sabab bo'lishi mumkin". Ushbu muammo nukusliklar uchun tanish

bo'lgan dolzarb masala bo'lib, bu post nafaqat jamoatchilikni, balki mas'ul tashkilotlarni ham chora ko'rishga undaydi.

Mintaqaviy OAVlarning yana bir afzalligi — ular respublika miqyosida faoliyat yurituvchi OAVlar uchun muhim axborot manbasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ko'plab respublika nashrlarida hududiy muxbirlar yo'qligi, mintaqaviy voqealarning ijtimoiy tarmoqlarda tez yoritilishi mintaqaviy axborot kanallariga tayanishga sabab bo'lmoqda. Masalan, 2025-yil 3-yanvar kuni Nukus shahridagi FVV ga qarashli harbiy qismda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan 19 yoshli yigit xizmat joyidagi nazorat o'tish punktidan oddiy askarni urib ko'chaga chiqib ketgan va buning oqibatida Nukus shahri "Danalar" ko'chasidagi uylarning biriga kirib uy egasini o'ldirgan. Bu mudhish hodisa qator mahalliy axborot saytlari telegram kanallarida qisqa xabar sifatida operativ tarzda yoritib berildi. Ushbu postlar esa O'zbekistondagi qator saytlar uchun ham manba xizmatini o'tab berdi. Ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, kun.uz saytining instagramdagi sahifasida ushbu hodisa "Nukusda mast askar 6 kishini pichoqladi, ulardan biri vafot etdi" [kun.uz], deb nomlangan video posti bilan berilgan. Shunga o'xshash yana bir hodisa — Kegeyli tumanida "Aminbay sharva" fermer xo'jaligi bilan bog'liq voqea bo'lib, unda IIB xodimlari ishchining telefonini olib qo'yib, uni avtomashina ichiga olib ketgani haqida fermerning kun.uz'ga bergan ma'lumotlari asosida "Kegeyli tumanida fermerning 14 gektarga ekilgan sholisi nobud qilindi" sarlavhali video post tayyorlangan. Bu holat ham mahalliy kanallar faoliyati natijasida respublika miqyosiga chiqqan axborot namunasi hisoblanadi.

Qoraqalpog'istonda sodir bo'lgan hodisalarning butun davlat bo'ylab tarqalishiga sabab bo'lgan qisqa postlarni ko'plab keltirish mumkin. Demak, mintaqaviy ko'lamdagi axborot makoniga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan kommunikatsion kanallar butun davlat miqyosidagi media makonning axborot oqimlariga ta'sir ko'rsatib kelayotganligi ko'zga tashlanadi.

Mintaqaviy OAVlarning yana bir muhim ustunligi — ular aniq bir mintaqada yashovchi aholi qatlamining ehtiyoj va qiziqishlarini to'g'ridan to'g'ri hisobga oladi. Misol sifatida Qoraqalpog'iston aholisi asosan qishloq joylarda istiqomat qilishini ko'rsatish mumkin. Demak, mintaqaviy OAV va kommunikatsion kanallar aynan shu aholi guruhining istak va muammolarini yoritishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Mahalliy kommunikatsiya kanallarida aholini o'ylantirgan muammolar atrofida kontent tayyorlash mahalliy auditoriyada fikr uyg'otadi va ko'proq auditoriyani tortish imkonini yaratadi. Masalan, bugungi kunda Qoraqalpog'iston auditoriyasiga anchagina tanilib ulgurgan aktyor Alisher Akimov mahalliy auditoriyani bir maqsad sari birlashtirishda katta ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Uning instagramdagi alisherakimov_offical nomli akkaunti dastlabki ish boshlaganda auditoriyasi uncha katta emas edi, ammo bugungi kunda obunachilar soni 69 mingdan oshgan. Bu akkaunt orqali auditoriya qoraqalpog'istonlik auditoriya uchun tanish bo'lgan chiqindilar, atrof-muhitning tozaligi kabi masalalar blogerning fidoyiligi tufayli bartaraf etib kelinmoqda. Misol uchun, Alisher Akimov va Toshkentlik ekoblogger Motobar Xushvaqtovaning (urikguli) birgalikdagi tashabbuslari orqali

2025-yil 16-mart kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumanida daraxt ekish aksiyasi tashkil etildi. Unda 700 donadan ortiq daraxt ko‘chatlari ekilib, atrof-muhitga foydali ishlarni amalga oshirdilar. Ushbu tashabbuslar orqali blogger atrofidagi fidoyi yoshlarni jamlab, hududni obodonlashtirishga xizmat qilmoqda.

Mintaqaviy OAVlarning bozor iqtisodiyoti va o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyillari doirasidagi ustunliklari quyidagicha umumlashtiriladi:

- taqdim etilayotgan voqea-hodisalar auditoriyaga tanish va dolzarb bo‘lishi;
 - OAVlarning o‘z auditoriyasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish imkoniyati;
 - OAVlar va o‘quvchilar o‘rtasidagi yaqinlik va uzluksiz aloqa;
 - ikkilamchi emas, bevosita, ikki tomonlama aloqaning mavjudligi
- bu orqali auditoriya talab va istaklari asosida axborot siyosatiga o‘zgartirishlar kiritish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston OAV tizimi olimlar tomonidan ilgari surilgan ommaviy axborot vositalarining tipologik klassifikatsiyasi asosida guruhlanib tahlil qilindi. Quyidagi asosiy tipologik mezonlarga e‘tibor qaratildi:

1. Hududiy tarqalish doirasi bo‘yicha. Qoraqalpog‘iston OAVlarini hududiy belgilariga ko‘ra tahlil qilsak, ularni respublika, shahar va tuman ommaviy axborot vositalariga ajratish mumkin. Respublika darajasidagi OAVlarga “Erkin Qaraqalpaqstan”, “Vesti Karakalpakstana”, “Qoraqalpog‘iston tongi”, “Qaraqalpaqstan jaslari”, “Jetkinshek” singari nashrlar kiradi. Teleradioeshittirish vositalari sifatida esa “Qaraqalpaqstan” telekanali va radiokanali, “AMU TV”, “Jaslar TV”, “ETV”, “Nokis FM” radiostansiyasi faoliyat yuritmoqda. Onlayn OAV tizimida “kknews.uz”, “kruz.uz”, “kar24.uz” va boshqa saytlar faoliyat yuritmoqda.

2. Auditoriyaning ko‘lami va adadi. Qoraqalpog‘istondagi gazetalarning tiraji mustaqillikning dastlabki yillarida keskin kamaygan bo‘lsa-da, keyinchalik asta-sekin o‘z yo‘nalishini topdi. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy hayotni yoritib kelayotgan “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasining tiraji 601 nusxadan oshmaydi.

3. Egalik shakli bo‘yicha. Qoraqalpog‘istonda ko‘plab OAVlar davlat tashkilotlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Teleradioeshittirish sohasida esa xususiy telekanallar bilan birga bitta radio stansiya faoliyat olib bormoqda. Onlayn OAVlarning aksariyati xususiy subyektlar tomonidan tashkil etilgan.

4. Mavzuli yo‘nalish bo‘yicha. Qoraqalpog‘iston ommaviy axborot vositalari tomonidan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ko‘ngilochar va boshqa mavzudagi masalalar yoritilib kelinmoqda. Ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishdagi gazetalari va telekanallar, “Erkin Qaraqalpaqstan”, “Vesti Karakalpakstana”, “Qoraqalpog‘iston tongi”, “Qaraqalpaqstan” telekanali va radiokanallari, “Qaraqalpaqstan jaslari” bilan “Jaslar TV” telekanali yoshlar hayoti bilan bog‘liq masalalarni yoritib boradi. “Jetkinshek” gazetasi esa bolalar mavzulalarini yoritish bilan cheklanadi.

Qoraqalpog‘istonda yana bir tipologik yo‘nalishdagi nashrlar klassifikatsiyasi bor, bular soha matbuoti. Ommaviy axborot vositalarini tahlil qilib kelayotgan olimlar tomonidan soha gazetalar tipidagi nashrlarni sanab ko‘rsatmagan bo‘lsa ham ayrim olimlar ushbu masalani ilgari surgan. Rus olimi A. A. Grabelnikov soha matbuotiga aniq tushunchani keltirib o‘tgan: “Soha matbuoti ma’lum bir sohaning ishlarini har xil aspektlarda yoritib beradi. U axborot bozorining keng turdagi segmentini tavsiya etadi” [Grabelnikov 2007: 39].

Qoraqalpog‘istonda ushbu gazetalar segmentida keng turdagi nashrlar faoliyat olib bormoqda. Ular qatoriga “Garezsizlik ham nizam”, “Tinishliq saqshisi”, “Qaraqalpaqstan madeniyati” va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin. Bu gazetalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri mintaqadagi o‘zgarishlar haqida batafsil ma’lumotlar berib boradi.

Mintaqaviy OAVlarning asosiy yo‘nalishi mintaqaviy axborotlarni muntazam ravishda yoritib borish. Ya’ni axborot va materiallar mintaqaning ijtimoiy vazifasi bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kun mintaqaviy jurnalistikani rivojlantirishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida mintaqaviy hokimiyat tashkilotlarining mintaqaviy OAV lar bilan yaqindan ish olib borishi hisoblanadi. Shunday ekan, ularga ushbu muammolarni olib chiqadigan maydon kerak. OAVlar esa ushbu muammolarni yoritish orqali auditoriya bilan yaqinligi yana ham kengayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Антропов В. В. Медiateксты как трансляторы ценностей в творческих практиках журналистов: опыт типологии печатных СМИ в культурологической идентификации // Вестник Челябинского государственного университета. — 2013. — № 10 (301). — С. 110–114.

Акопов А. И. Электронные сети как новый вид СМИ // Филологический вестник РГУ. — 1998. — № 3. — С. 43–51.

Вертешин А. И. Региональная журналистика: особенности взаимодействия с местной властью // Общество и реформы. — 2006. — № 2. — С. 198.

Вертешин И. А. Региональная журналистика: особенности взаимодействия с местной властью // Управленческое консультирование. — 2006. — № 2. — С. 197–203.

Глазычев В., Щедровицкий П. Россия. Пространственное развитие. — URL:

<http://www.archipelag.ru/agenda/povestka/evolution/development/doklad2004/> (дата обращения: 09.01.2025).

Каганский В. Л. Регионализация, регионализм, пострегионализация // Интеллектуальные и информационные ресурсы и структуры для регионального развития. — М., 2002. — С. 12–18.

Грабельников А. А. Работа журналиста в прессе. — М.: РИП-Холдинг, 2007. — 256 с.

Здравомыслов А. Г. Потребности. Интересы. Ценности. — М., 1986. — 98 с.

- Корконосенко С. Г. Основы журналистики: учеб. пособие. — М.: Аспект Пресс, 2016. — 272 с.
- Лукина М. М. СМИ Рунета: штрихи к типологическому портрету (по результатам мониторинга интернет-СМИ). — URL: http://www.mediascope.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=59&Itemid=46 (дата обращения: 09.01.2025).
- Пуля Ю. С. Динамика и характер развития местных газет в структуре региональных и федеральных СМИ России (политический анализ): дис. ... канд. филол. наук. — СПб., 2004. — 189 с.
- Прохоров Е. П. Публицистика в жизни общества. — М., 1968. — 120 с.
- Тулупов В. В. Моделирование в журналистике // Современные проблемы журналистской науки: сб. науч. ст. — Воронеж, 2006. — 144 с.
- Сафина А. Р. Типология современных российских интернет-СМИ // Достижения вузовской науки. — 2013. — № 2. — С. 13–17.
- Самуйлова А. И. Средство массовой информации: психологические реалии современной журналистской практики // Конец журнализма. Version 2.0. Индустрия, технология и политика / пер. с англ. Е.Н.Николаева. Гуманитарный центр. С. 9-12.
- Смеюха В. В. Вопросы медиалогии: монография / науч. ред. Н. И. Бусленко. — Ростов-на-Дону, 2013. — 324 с.
- Стральцоў Б. В. Публіцыстыка. Жанры. Майстэрства. — Мінск, 1977. — 46 с.
- <https://uz.tgstat.com/ru/channel/@KARAKALPAK24/stat/posts-popular> (murojaat sanasi: 09.01.2025).
- Shimbay hawazi. — 2025. — 5-yanvar.
- <https://t.me/Kar24Uz/42688> (murojaat sanasi: 09.03.2025).
- https://www.instagram.com/p/DHVJ03XNZ3y/?utm_source=ig_web_copy_link&igsh=MzRIODBiNWFlZA== (murojaat sanasi: 09.03.2025).
- https://www.instagram.com/reel/DEZgGcXMvkr/?utm_source=ig_web_copy_link&igsh=MzRIODBiNWFlZA (murojaat sanasi: 09.03.2025).
- <https://www.instagram.com/kun.uz/reel/DAoEFcuMjcn/> (murojaat sanasi: 09.03.2025).

Manbalar

- Советская Каракалпакия. — 1951. — 24 августа.
- <https://uz.tgstat.com/ru/channel/@KARAKALPAK24/stat/posts-popular> (murojaat sanasi: 09.01.2025).
- Shimbay hawazi. — 2025. — 5-yanvar.
- <https://t.me/Kar24Uz/42688> (murojaat sanasi: 09.03.2025).
- https://www.instagram.com/p/DHVJ03XNZ3y/?utm_source=ig_web_copy_link&igsh=MzRIODBiNWFlZA== (murojaat sanasi: 09.03.2025).
- https://www.instagram.com/reel/DEZgGcXMvkr/?utm_source=ig_web_copy_link&igsh=MzRIODBiNWFlZA (murojaat sanasi: 09.03.2025).
- <https://www.instagram.com/kun.uz/reel/DAoEFcuMjcn/> (murojaat sanasi: 09.03.2025).

References

- Antropov, V. V. (2013). *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta*, No. 10 (301), pp. 110–114. (In Rus.)

- Akopov, A. I. (1998). *Filologicheskii vestnik RGU*, No. 3, pp. 43–51. (In Rus.)
- Verteshin, A. I. (2006). *Obshchestvo i reformy*, No. 2, p. 198. (In Rus.)
- Verteshin, I. A. (2006). *Upravlencheskoe konsul'tirovanie*, No. 2, p. 201. (In Rus.)
- Glazychev, V., & Shchedrovitskii, P. (2004). *Rossia. Prostranstvennoe razvitie*. Available at: <http://www.archipelag.ru/agenda/povestka/evolution/development/doklad2004/> (accessed 09.02.2025). (In Rus.)
- Kaganskii, V. L. (2002). *Intellektual'nye i informatsionnye resursy i struktury dlia regional'nogo razvitiia*, pp. 67. (In Rus.)
- Grabel'nikov, A. A. (2007). *Rabota zhurnalista v presse* (Journalist's Work in the Press), Moscow, RIP-Kholding. (In Rus.)
- Zdravomyslov, A. G. (1986). *Potrebnosti. Interesy. Tsennosti* (Needs. Interests. Values), Moscow, n.p. (In Rus.)
- Korkonosenko, S. G. (2016). *Osnovy zhurnalistiki* (Fundamentals of Journalism), Moscow, Aspekt Press. (In Rus.)
- Lukina, M. M. (n.d.). Available at: http://www.mediascope.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=59&Itemid=46 (accessed 09.02.2025). (In Rus.)
- Pulya, Yu. S. (2004). *Dinamika i kharakter razvitiia mestnykh gazet v strukture regional'nykh i federal'nykh SMI Rossii* (Dynamics and nature of local press development in Russian media), candidate's thesis, Saint Petersburg. (In Rus.)
- Prokhorov, E. P. (1968). *Publitsistika v zhizni obshchestva* (Publicism in the Life of Society), Moscow, n.p. (In Rus.)
- Tulupov, V. V. (2006). *Sovremennye problemy zhurnalistskoi nauki*, pp. 52. (In Rus.)
- Safina, A. R. (2013). *Dostizheniia vuzovskoi nauki*, No. 2, pp. 13–17. (In Rus.)
- Samuilova, A. I. (2016). *Sredstvo massovoi informatsii* (Mass Media), Kharkov, n.p. (In Rus.)
- Sovetskaia Karakalpakii. (1951). 24 avgusta. (In Rus.)
- Smekhiukha, V. V. (2013). *Voprosy medialogii* (Issues of Medialogy), Rostov-na-Donu, n.p. (In Rus.)
- Straltsou, B. V. (1977). *Publitsistika. Zhanry. Maisterstva* (Publicism. Genres. Craft), Minsk, n.p. (In Rus.)

Sources

- Sovetskaia Karakalpakii. (1951). 24 avgusta. (In Rus.)
<https://uz.tgstat.com/ru/channel/@KARAKALPAK24/stat/posts-popular>
- Shimbay hawazi. (2025). 5 January. (In Uzb.)
<https://t.me/Kar24Uz/42688>
https://www.instagram.com/p/DHVJ03XNZ3y/?utm_source=ig_web_copy_link&igsh=MzRIODBiNWFlZA==
https://www.instagram.com/reel/DEZgGcXMvkr/?utm_source=ig_web_copy_link&igsh=MzRIODBiNWFlZA
<https://www.instagram.com/kun.uz/reel/DAoEFcuMjcn/>